

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

JORAI

Journal of



RESEARCH

and

INNOVATIONS

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ

Volume I, Issue 6



IMFAKTOR
PAGES

JUNE | 2023

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 6-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-6

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-6

ТОШКЕНТ - 2023

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 6 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-6>

Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

Омонов Қ. – филология фанлари доктори, профессор
Муҳибова У. – филология фанлари доктори, профессор
Каримов Б. – филология фанлари доктори, профессор
Рашидов Т. – санъатшунослик фанлари номзоди, доцент
Мухамедова Ф. – санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори
Тешабоев Ж. – санъатшунослик фанлари доктори, профессор
Эгамбердиев И. – техника фанлари доктори, профессор
Ташманов Е. – техника фанлари доктори, профессор
Салихова О. – техника фанлари номзоди, доценти
Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Жумамуратов А. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Камолов Б. – география фанлари доктори, профессор
Миракмалов М. – география фанлари номзоди, доцент
Тожиева З. – география фанлари номзоди, доцент
Юсупова М. – архитектура фанлари доктори, профессор
Аскарров Ш. – архитектура фанлари доктори, профессор
Назарова Д. – архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

Техника фанлари

MAMAJONOVA Guluzra Abdurashitovna

*Andijon davlat pedagogika instituti
“Informatika va aniq fanlar” kafedrası v.b dotsenti*

MADIXO‘JAYEVA Mehriniso Obidxo‘ja qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti
talabasi*

ABDUVOXIDOVA Shaxrizoda G‘olibjon qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti
talabasi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8086956>

TEKNOLOGIYA TA'LIMI MASHG'ULOTLARINI O'QITISHDA FANLARARO BOG'LIQLIK

ANNOTATSIYA

Texnologiya fani barchamizning hayotimizni ajralmas bir qismiga aylanib bormoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, ta'lim tizimi jadal rivojlanayotgan davrda hamma fanlarning o'zaro bog'liqligini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. O'quvchilarga texnologiya fanini O'rgatishda asosan fanlarga bog'lab o'rgatish juda samara beradi. Chunki, o'quvchida o'rganayotgan mavzusi yana bir fanning elementi ekanligi sabab qiziqish uyg'onadi. Ushbu tayyorlangan maqolada turli fanlarning texnologiya fani bilan bog'liqligi haqida har bir fanga alohida ta'rif berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, ekologiya, ona tili, matematika, geografiya, tasviriy san'at, geometriya, tarix, fizika, kimyo, bialogiya, metodlar.

МАМАЖОНОВА Гулузра Абдурашитовна

*доцент кафедры информатики и точных наук
Андижанского государственного педагогического института*

МАДИХОДЖАЕВА Мехриниса Обидхўжа қизи

*студентка Андижанского государственного педагогического института
“Технологического образования”*

АБДУВОХИДОВА Шахризода Галибжон қизи

*студентка Андижанского государственного педагогического института
“Технологического образования”*

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНАЯ СВЯЗЬ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕХНОЛОГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ КУРСОВ

АННОТАЦИЯ

Не будет преувеличением сказать, что наука о технике становится неотъемлемой частью нашей жизни. Особенно в период бурного развития системы образования целесообразно изучение взаимозависимости всех предметов. Образовательная практика показывает, что установление межпредметных связей в школьном образовании является ярким выражением интеграционных процессов, происходящих сегодня в жизни науки и общества. Очень эффективно обучать студентов технологиям, связывая их с предметами. Потому что студенту интересно, потому что предмет, который он изучает, является элементом другой науки. В данной статье каждому предмету дается отдельное определение о связи различных предметов с наукой о технике.

Ключевые слова: интеграция, экология, родной язык, математика, география, изобразительное искусство, геометрия, история, физика, химия, биология, методы.

MAMAJONOVA Guluzra Abdurashitovna

*Associate Professor of the Department of Informatics and Exact Sciences of the
Andijan State Pedagogical Institute*

MADIKHO‘JAYEVA Mehrinisa Obidkhoja kizi

*student of Andijan State Pedagogical Institute
of Technological Education*

ABDUVOKHIDOVA Shahrizoda Ghalibjon kizi

*student of Andijan State Pedagogical Institute
of Technological Education*

INTERDISCIPLINARY CONNECTION IN TEACHING TECHNOLOGY EDUCATION COURSES

ANNOTATION

It is no exaggeration to say that science of technology is becoming an integral part of our lives. Especially in the period when the education system is rapidly developing, it is appropriate to study the interdependence of all subjects. Educational practice shows that the establishment of interdisciplinary communication in school education is a vivid expression of the integration processes taking place in the life of science and society today. It is very effective to teach technology to students by connecting it to subjects. Because the student is interested because the topic he is studying is an element of another science. In this article, each subject is given a separate definition about the connection of various subjects with the science of technology.

Key words: integration, ecology, mother tongue, mathematics, geography, visual arts, geometry, history, physics, chemistry, biology, methods.

Respublikamizda qabul qilingan kadrlar tayyorlash milliy dasturida fanlararo aloqadorlik asosida o'qitishni o'quv jarayoniga keng tadbiiq qilish masalasi hozirga paytda umumta'lim maktablarida dolzarb muammo qilib qo'yilgan. Mehnat ta'limi darslarida integratsiyalab o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarini qo'llash, o'quv-uslubiy ta'minot muammolariga qaratilgan bir necha diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Xalq ta'limi tizimini takomillashtirish xamda ularning o'quv-tarbiya jarayoniga Axborot kommunikatsion va zamonaviy pedagogik xamda kompyuter texnologiyalarini tadbiiq etish respublikamizda ta'lim tizimining rivojlanishi va e'tiborga olinganligidan dalolatdir.

Texnologiya siz-u bizning kundalik faoliyatimizda foydalanadigan asosiy fandır. Bu fan tikish bichirsh, pishirish, ko'rgazmalar tayyorlaah, gullar yasash, kasb-hunarga yo'naltirish kabi ko'plab turli vazifalarni o'z ichiga oladi. Texnologiya so'zining asl mohiyati biror narsaning boshlang'ich maxsulotlaridan tortib uni tayyor holga kelishigacha bo'lgan jarayonni o'zida mujassam etadi. Maktab o'quvchilariga texnologiya fanini chuqur o'rgatish uchun avvalambor bu fanning maqsadi va vazifalari, fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi tushuntirib o'tiladi.

So'nggi yillarda ta'lim-tarbiya tizimida yangi avlod tarbiyasida jahon fani madaniyatining ilgor yutuqlarini jamlagan, otmish ajdodlarimiz aql-zakovati mahsuli sifatida yaratilgan milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan holda zamonaviy ta'lim-tarbiya berish uslublarini shakllantirish muammosi vujudga keldi. Barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining asosi. Shu bois mamlakatimizda ham jismonan, ham ma'nun barkamol avlodga ta'lim-tarbiya berish davlat siyosati darajasiga kotarilgan. Ta'lim amaliyoti korsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qoyish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bolayotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli ozlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy tayyorgarligini oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Boshlang'ich maktabda integratsiyani amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi amalga oshiradi.

Integratsiyaning ta'limdagi nazariy va amaliy jihatdan muhimligi juda qadimdan ma'lum. Aslida "integratsiya" so'zi lug'atda lotincha "tegragrac" so'zidan olingan bo'lib, qayta qurish, tiklash, to'ldirish ("integr"- to'liq, butun, yaxlit) degan ma'noni anglatadi. Xususan Qo'shchanov M.K., Akobirov S.T., Adxamova N.A va b. "Ruscha o'zbekcha lug'at"ida (1983) "integratsiya" – bog'langan xolda rivojlantirish, "integrirovat - bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit xolga keltirmoq-deb bayon qilingan [1].

Binobarin integratsiya deganda, aloxida elementlarini yig'ib, ularni birlashtirish, yaxlit xolga keltirish deb tushunish mumkin. SHuningdek, ko'pchilik olim va metodistlar integratsiya muammosining mazmun moxiyatini aniqlash bo'yicha fikr berganlar. Hozirgi kunda "integratsiya" tushunchasining aniq ta'rifi, metodik adabiyotlarda, bu muammo bo'yicha shug'ullangan olimlar tomonidan bir -biriga yaqin bo'lgan ta'riflarda berilgan.

Integratsiya tushunchasi quyidagi ikki xil jarayon sifatida talqin etiladi.

- birinchidan, tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liklik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon;

- ikkinchidan tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni. Genetik jihatdan integratsiya – uzviylik predmetlararo aloqadorlik, ozaro aloqadorlik va nihoyat ozaro bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o'quv predmetlari mazmunini eng kamida ta'lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir.

Endi texnologiya fanini boshqa fanlar bila aloqadorligini birma-bir ko'rib chiqsak.:

- Biz bilamizki, onatili fani so'zlarning ma'nolari shakllarini o'rganuvchi fan. Texnologiya fanida har bir atamalarining ma'nolariga e'tibor qaratish zarur. Biz so'zlarni to'g'ri va tushunarli yozishimiz, ma'no jihatiga ham e'tiborli bo'lishimiz kerak. Har bir narsa buyumning vazifasini aniq yozib aytib berish lozim. Ayniqsa, nutqimiz ravon bo'lishi o'quvchilarga mavzuni tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Texnologiya va rasm:

Mehnat darslarda rasmlarning tutgan oʻrni nihoyat kattadir, chunki birorta detal yoki buyumni yasashdan avval uning rasmi yoki eskizi chiziladi va oʻquvchilarga koʻrsatiladi. Oʻquvchilar ham ana shu rasmlarni daftariga koʻchirib chizib oladilar. Oʻquvchilar ana shu rasmlar orqali oʻsha detal yoki buyum toʻgʻrisida tasavvur hosil qiladilar.

Koʻrinib turibdiki, bu yerda oʻquvchilarda har xil rasmlar chizish malakasi ham shakllana boradi. Lekin tajribalardan maʼlumki, rasm chizish oson ish emas. Koʻpgina oʻquvchilar rasm chizishga oid yetarli maʼlumot va malakaga ega boʻlmaganliklaridan bu ishni bajarishda qiyinchiliklarga duch keladilar. SHu sababli oʻqituvchi mehnat darslarda oʻquvchilarga buyumlarning texnik rasmi, eskizi, yaqqol tasviri, perespektiva, rasmlarni chizishdagi ish ketma-ketligi shuningdek, ranglarni farqlash, ularni mutanosib joylashtirish va shu kabilar haqida ham tushuncha berib borishga toʻgʻri keladi.

Texnologiya va matematika:

Mehnat taʼlimi darslarida oʻquvchilarga toʻgʻri burchak, perpendikulyar va parallel chiziqlar, toʻgʻri burchakli uchburchak va toʻgʻri toʻrtburchak kabi shakllarni hosil qilishga oid tushunchalar zarur boʻladi. Bularidan tashqari, oʻquvchilar mehnat darslarida simmetriya oʻqi, shakllarni simmetrik chizish, aylana, urinmalar oʻtkazish chizgʻich, goʻnya, transportir, burchak oʻlchagich, sirkul kabi turli asboblardan yordamida detal yoki buyumlarning burchaklarini, yoy markazlarini, toʻgʻri va egri chiziq boshqa oʻlchamlarini aniqlashlariga toʻgʻri keladi.

Bunday paytlarda geometriyaga oid boʻlgan ilmlar zarur boʻladi. Binobarin, maktab geometriya kursida chizish va oʻlchash qurollaridan foydalanish, yuzalarni almashtirish kabi ishlarni bajarishda katta imkoniyatlar bor. Vazifa shulardan mehnat darslarida oʻrinli foydalanishdan iborat. SHuningdek, berilgan buyumlarning uzunligi, eni, balandligi, yuzasi, hajmi kabi turli oʻlchamlarni aniqlash, qancha material vaqt sarf boʻlishini hisoblash kabi ishlarni bajarishda esa arifmetikaga oid bilimlar zarurdir.

Texnologiya va jismoniy tarbiya:

Maʼlumki, mehnat taʼlimi darslarining asosiy qismi amaliy mashgʻulotlardan iborat. Shu sababli oʻquvchilarning amaliy mashgʻulotlarda charchab qolmasliklari koʻp jihatdan ularning jismoniy chiniqishlariga bogʻliqdir. Bundan mehnat va jismoniy tarbiya mashgʻulotlarini oʻzaro muvofiqlashtirish zarur degan oqilona xulosa kelib chiqadi. Binobarin, yoshlarni jismoniy tarbiyalash bilan ularni mehnatga tayyorlashning oʻzaro kompleks bogʻlangan masalasi hal etiladi, yaʼni unda shaxsning mehnat faoliyati uchun zarur boʻlgan professional jismoniy xususiyatlari, harakat malakalari, ahloqiy-irodaviy va sotsial sifatleri shakllanadi.

Xususan arralash, randalash ishlarini gimnastika, bolgʻalash ishlarini boks, chamalash ishlarini moʻljalga olish kabi mashgʻulotlarga muvofiqlashtirish mumkin. SHuni alohida taʼkidlab oʻtish oʻrinliki, agar jismoniy tarbiya mashqlari 4-sinflardagi mehnat taʼlimi darslariga umumiy tarzda bogʻlansa, keyinchalik esa yuqori sinflarda bu bogʻlanishlar oʻrganiladigan muayyan ixtisosliklar: masalan, duradgor, tokar, elektr payvandchi, suvoqchi, gʻisht teruvchi, slesar santexnik kabi kasblarga bevosita moslashtirish qiyin emas [3].

Texnologiya va adabiyot:

Maʼlumki, mehnat taʼlimi darslarida adabiyot fanining bogʻlanishi sezilarli darajada namoyon boʻladi. CHunki adabiy asarlarda mehnat tarbiyasi va mehnatsevarlik gʻoyalari ufurib turadi. Mehnat taʼlimi darslarida bulardan omilkorlik bilan foydalanish, zarur parchalarni oʻqib berish kerak. SHuningdek, mashhur shoirlar oʻtmishda ustalar tomonidan yasalgan ajoyib moslamalardan foydalanganliklarini ham eslatib oʻtish mumkin. Masalan, oʻquvchilarga kitob qoʻyib oʻqish uchun moʻljallangan lavh haqida maʼlumot berish bilan bevosita Nizomiy, Al-Xorazmiy, Abduraxmon Jomiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Muqimiy, Furqat kabi allomalarimizning ijodiy faoliyatlariga toʻxtalib, ular mana shu moslamadan, yaʼni lavhdan foydalanib kitob mutoala qilganliklarini aytib oʻtish oʻrinlidir.

Shoir Husrav esa, mashhur shoir bo'lish bilan birga mohir duradgor usta bo'lganligini eslatib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bulardan tashqari, nazariy va amaliy darslarda o'lchov olishlarini xalq og'zaki ijodi bilan bog'lash ham mumkin. Bu o'rinda quyidagi xalq maqollarini keltirish o'rindir: "Yetti o'lchab bir kes", "Rejasiz ish-qolipsiz g'isht", "Sanamay sakkiz dema" va boshqalar. Mehnat ta'limi muallimlari o'z darslarida mehnat, mehnatkash insonlar to'g'risidagi badiiy asarlar o'quvchilarga tavsiya qilishlari natijalarni tekshirib borishlari orqali ulardan mehnatga muhabbat, hurmat tuyg'ularini o'stirish, mehnatga ongli munosabatda bo'lish, ijodkorlikka intilish kabi xislatlar tarkib topishiga yordam berishlari darkor.

Texnologiya va ona tili:

Xayotda nutq va tilning ahamiyati nihoyatda muhimdir. Hammamizga ma'lumki, sobiq Sovet Ittifoqi davrida o'zbek tiliga, atamalarga, tilning lug'at, boyligiga e'tibor susaydi. 1989-yilda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida" Qonunning qabul qilinishi mehnat ta'limini o'qitish ishlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Mavzularni bayon qilishda ona tiliga mos holda ayrim atamalarning o'zbekcha shaklini ko'rsatish lozim. Jumladan, verstakni-dastgox, remontni-ta'mir, slesarni-chilangar, lineykani-jazbar, xolodilnikni-sovutgich kabi o'nlab atamalarni misol qilib keltirish mumkin. SHular qatorida ayrim so'z va atamalar borki, ularni o'zbekchalashtirish mumkin emas, chunki ular ifodalangan narsa va bular ilgari bizda ishlatilmagan, shuning uchun o'sha so'zlarni o'zgarishsiz qo'llash lozim bo'ladi [4].

Bunday so'zlarga sirkul, tiski, otvyortka, rezba, rezina, montaj, plastmassa, agregat, seyalka, borona, voltmetr, ampermetr, radio, lampa, diod, zubilo, shtangensirkul, transportir, stanok kabi atamalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Shuningdek, ona tili darslarida ayrim mavzularni o'rgatish jarayonda kasb-hunarga oid misollarni qo'llash orqali ham fanlarni bir-biriga bog'lash mumkin. Jumladan, "Kasb-hunar so'zlari" mavzusi o'rganilayotganda duradgorlik, tikuvchilik, to'quvchilik, pazandachilik va boshqa kasblarga doir atama va so'zlardan keng foydalanish, ularni o'quvchilarning o'zlariga topshirish, uydan yozib kelish uchun vazifa qilib berish mumkin. Bunday ishlar orqali o'quvchilar har xil kasb-hunarlar bilan tanishadilar, ulardan shu kasb-hunarga ma'lum darajada qiziqish va ishtiyoq uyg'onadi.

Texnologiya va tarix:

Ko'hna va navqiron o'lkamiz ko'p ming yillik tarixga, madaniy merosga ega. O'lkamizda xalq hunarmandchiligi, naqqoshlik, me'morchilik kabi o'nlab noyob kasblar ravnaq topgan. Qo'li gul ustalar tomonidan ajoyib buyumlar yasalgan, muhtasham binolar qurilgan. Ularning ishlarini fidoiy shogirdlar davom ettirib kelganlar, shuning uchun biz moziyga, o'tmishimizga nazar tashlamasdan turib, hozirgi hayotimizni, kelajakdagi turmushini gullatib yashnata olmaymiz.

O'quvchilarni hunarga, xususan xalq hunarmandchiligiga qiziqtirishda tarixdagi qurilish, binolarning ustalari, mohir qo'llar, zargarlar, duradgorlar, temirchilarning qilgan ishlari bilan tanishtirish mumkin. Hozirgi kunda xalq amaliy sa'natiga, hunarmandchiligiga e'tibor kun sayin ortib bormoqda. Masalan, xozir ko'pchilik maktablarda xontaxta, eshik, rom, darvoza, so'ri, sandal, beshik, sandiq, milliy kursi kabi buyumlarni tayyorlash ishlari o'quvchiga dars mobaynida o'rgatib borilmoqda.

Bularning hammasi tariximizga, milliy qadriyatlarimizga bo'lgan e'tiborning bir ko'rinishidir. Bulardan tashqari, mehnat darslarida maktabdagi yoki tumanlardagi o'lkashunoslik muzeylariga ayrim buyumlarning namunalarini yasab berish orqali ham o'quvchilarga tarixiy ma'lumotlar hamda tushunchalar berish, ulardan o'tish ajdodlarimizning san'at va ustachiligidan zavqlanish, faxrlanish hissini tarbiyalash mumkin.

Texnologiya va ekologiya:

Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida ish asboblari va xom ashyolardan tejamkorlik bilan foydalanish kun tartibidagi asosiy talablardan bo'lib qoldi. Amaliy mashg'ulotlarda xom ashyolardan va asbob-uskunalardan tejamsiz, palapartish foydalanish pirovard oqibatda ekologiya muammosiga kelib taqaladi.

Shuning uchun o'quvchilarga yog'och, metall, plastmassa kabi materiallarni berayotganda nima uchun bu xom ashyolarni tejamkorlik bilan ishlatish zarurligini aytib o'tish lozim [5].

Ular bu narsalarning uzoq davrlar mobaynida va qanday yo'llar bilan vujudga kelishini hamda tabiatga qanchalik ta'sir ko'rsatkichi yoki bog'liqligini gapirib o'tish mumkin.

Yuqorida aytilgan fikrlar mehnat talimidagi fanlararo uzviy bog'lanishlar ta'lim samaradorligini oshirishdagi muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Bilamizki, bitta darsni birdaniga hamma fanlar bilan bog'lab o'tib bo'lmaydi, balki o'rganiladigan mavzuga mos keluvchi tushuncha va ma'lumotlarni tanlab olib, zarur paytda ulardan foydalaniladi.

Shuningdek, mehnat darslarida boshqa fanlar, jumladan chet tili, iqtisod kabi fanlardagi tushunchalardan ham keng foydalanish mumkin. Hozirgi kundalik turmushning barcha javoblarida, fizika, texnika va boshqa tabiiy fanlarning integratsiyasi jarayonlari keng qo'llanilib kelinmoqda. Shuning uchun xam bo'lajak mutaxassis o'quvchilar, maktabda umumta'lim predmetlari bo'yicha keng integrativ bilimlar bilan qurollangan bo'lishlari lozim. Bunda o'qituvchi maqsadga yo'naltirilgan, uslubiy va ilmiy asoslangan va o'quv materiallarining mazmuni, mohiyati bo'yicha maqsadga muvofiq integrativ materiallarni tanlashning prinsiplarini bilishi zarur. Binobarin, o'qituvchi nafaqat dasturdagi mavzularga oid integrativ materiallarni yig'ishi, balki uni tizimlashtirishi, ular bilan o'quvchilarni darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tanishtirish maqsadida zaruriy metodlarni izlab topishi lozim.

Endi esa "Texnologiya fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi" mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda ayrim bir metodlarni aytib o'tsak. O'quvchilarni biror tikuv sexiga olib borib tikilayotgan kiyim kechaklar haqida ancha ma'lumot berish, tabiat qo'yniga olib chiqib oziq-ovqat uchun ishlatiladigan sabzavotlarni qanday yetilishi va qaysidur taomni tayyorlash jarayonini amaliy bajaritirish darsning tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Maktab o'quvchilari qiziquvchan bilimga chanqoq bo'lishadi ular bilan amaliy darslarni ko'proq tashkil qilish kerak. "Aqliy hujum", "Zinamazinga", "Klaster" kabi keng tarqalgan va yaxshigina foyda beradigan metodlardan foydalanish mumkin.

Dars o'tish uchun yangicha metodlar o'ylab topib har darsni har turli yangi metodlar bilan o'tsak ham esda qolarli ham qiziqarli bo'ladi. "Samolyot" metodidan foydalanib dars o'tsak juda soz bo'ladi. Demak, oddiy qog'ozdan samolyot yasaymiz va har bir o'quvchiga uchurib savol beramiz. Savolni og'zaki tarzda berib javobini ham og'zaki tarzda olamiz. Buni juda tez "Aqliy hujum" metodi kabi bajarishimiz kerak bo'ladi. Eng ko'p javob bergan o'quvchilarni baholaymiz. Ayniqsa, bu metodni 5-6 sinflarda qo'llasak ayni muddao bo'ladi.

Xulosa o'rnida texnologiya fanini o'rganishning asl mohiyati yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish, insonlarni kundalik hayotida kerak bo'ladigan tikish bichish, turli taomlar, ichimliklar tayyorlash, dekorativ buyumlar yasash kabi turfa yo'nalishlarni o'rganishdir.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Muslimov N.A., SHaripov SH.S., Sattorov V.M., Davlatov K. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2009;
2. K. Davlatov Mehnat va mehnat ta'limi, tarbiyasi hamda mehnat tanlash nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. "O'qituvchi" 1992;
3. Boltaboev S.A., Ismoilova M.M. Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi fanidan kurs ishlari. (Metodik qo'llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2002;
4. Qo'ysinov O.A., Sattorov.V.N., Yakubova H.S. Mehnat ta'limidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi. (Metodik qo'llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2011;
5. Sharipov Sh.S, Yakubova H.S Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar kasbiy moslashishining tashkiliy-metodik omillari. Metodik qo'llanma. Toshkent-2007.

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 6-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-6

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-6

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz